

MILLIY SOZLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

Maxmudova Maxribon Maxmud qizi

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi 12-Ivokal 20 guruh talabasi

Ajdodlarimiz tomonidan o'tmishda keng miqyosda ishlatilgan qadimiy sozlardan ko'p qismi bizgacha yetib kelmagan. Yuqorida eslatib o'tilgan, ud, rud, qonun singari sozlar, shuningdek, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xusrav Dehlaviy kabi mumtoz adabiyotimiz buyuk darg'alari yaratgan "Xamsa" turkumlarining Bahrom Go'r haqidagi asarlarida tasvirlangan Dilorom qo'lidagi arfasimon tirnab chalinadigan soz – chang ham oxirgi II, III asr davomida deyarli ishlatilmasdan keldi. O'rta Osiyo musiqa madaniyatiga xos cholg'ulardagi xilma- xillik yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'tmish tarixiy yodgorliklarida ham namoyon bo'ladi.

Zamonaviy musiqiy tadbirlarda keng qo'llanilayotgan – karnay, surnay, nay, dutor, tanbur sozlari shular jumlasidandir. Eng muhimi qadimiy yodgorliklarda aks ettirilgan aynan shu tusdagi cholg'ular deyarli o'zgarishsiz bizgacha yetib kelgan. Masalan, to'y hashamlarimiz ko'rki bo'lgan karnayga Misrning qadimiy mis karnayi o'xshab ketsa, doyra o'z tuzilishi va chalinish uslubi bilan eramizdan ming yil oldingi haykalchalarda tasvirlangan sozandalar qo'lidagi cholg'ulardan deyarli farq qilmaydi. Bu misollar bilan shuni ta'kidlash lozimki, ayni paytda milliy sozlarimizda ma'lum o'zgarishlar sodir bo'lganligini ko'rish mumkin.

Jumladan, eramizdan oldingi minginchi yillarga mansub tanbursimon cholg'uning hozirgi kunda Sharq mamlakatlarida keng ishlatilayotgan turi o'z navbatida uzoq asrlar davomidagi doimiy takomillashuvlar natijasi sifatida gavdalanadi. Ammo shunday uzoq tarixga ega bo'lgan ushbu cholg'u ham turli mamlakatlarda har xildir. Hozirda tanbur nomi bilan yuritiladigan uzun dastali "Lyutnya"ning Eron, Afg'oniston, Turkiya va O'rta Osiyo xalqlaridagi nusxalari deyarli turli shaklda ekanligi ma'lumdir. Ayni paytda Sudanda tanbur nomi bilan mashhur tanbursimon o'zgacha tuzilishdagi torli cholg'u asbobi ham mavjud.

O'zbekiston va O'rta Osiyoning boshqa respublikalarida hozirda keng tarqalgan tanbur va dutor sozlari borasida keyingi bobda batafsilroq to'xtalamiz.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek o'zbek milliy musiqasining ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Ko'hna risolalarda qayd etilishicha, musiqiy merosimizning dastlabki ko'rinishlarining paydo bo'lishi eramizdan oldingi III asrga to'g'ri keladi. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, bu davrlarda turkiy tilda so'zlashuvchi aksariyat xalqlar yashovchi hududlar Xitoylar imperiyasiga qarashli bo'lgan.

U davrlarda turli xalqlar musiqasi asosini "Chopaslon", "Shandiq" kabi unga yaqin kuylar asosida yilning har kunida ijro etiluvchi 360 ta xilma – xil ohanglar chalingan. Bu kuylar asosan raqs san'atiga mo'ljallangan bo'lgan.

O'sha vaqtdagi musiqiy asarlardan biri "Kini Siyovush" (Siyovushning o'limi) turkum qo'shig'i bo'lgan. Bu asar o'ziga xos musiqiy tomosha bo'lib, o'n kun davomida uzluksiz ijro etilgan. Asar g'oyasini yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash tashkil etgan. Asar nihoyasida adolatning yovuzlik ustidan g'olib chiqishi o'z aksini topadi. Mazkur asar ijrosida zarbli, qo'ng'iroqchalar va urib chalinadigan sozlardan keng foydalanilgan.

Ilmi manbalarning shahodat berishicha, rubobsimon – dutorsimon asboblari ham eramizning II, III asrlarida Movarounnahr xalqlari orasida keng tarqalgan. Afsuski, islomgacha bo‘lgan O‘rta Osiyo xalqlari musiqiy madaniyati haqida ma’lumot beruvchi manbalar juda kam.

Demak, Movarounnahr xalqlari musiqiy madaniyatida asosan zarbli sozlar ko‘proq ahamiyat kasb etgan. Shunday qilib o‘zbek musiqa san’ati ibtidoiy jamiyatida xalq turmushi va mehnat jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu davrda xalqning turli marosim va tadbirlarida cholg‘u asboblari keng qo‘llanilgan. Masalan, “Navro‘z” tantanalarida sozandalar tomonidan tanbur, dutor, chang, rubob, doyra, daf, chiltor singari sozlarda jo‘rnavoqlik qilib kuy va qo‘shiqilar ijro etilgan, eng qadimiy xalq og‘zaki, she‘riy ijodiyotning shakllanishi ham xalq cholg‘ulari rivoji bilan bog‘liqdir. Shunday qilib o‘zbek cholg‘u asboblarining paydo bo‘lishi va takomillashishi boy tarixga ega ekanligini e’tirof etish lozim. O‘zbek sozlari o‘zining ko‘p asrlilik taraqqiyoti davomida o‘ziga xos tuzilishi tufayli nay, surnay, dutor, tanbur, rubob, g‘ijjak, qobuz singari sozlar an’anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Ma’lumki, IX asr oxirida Samoniylar sulolasi O‘rta Osiyoning kattagina qismini birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Samoniylar davlatining poytaxti – Buxoro yirik madaniy markazga aylandi. Bu shaharda tarixiy rivojlanish sharoitida ma’naviyatning yuksalib borishi shaharliklar va yuqori tabaqa sinflari turmushida musiqaning roli sezilarli darajada o‘ydi. O‘sha paytdayoq yakkanavozlik, ansambl ijrochiligi va raqsni o‘z ichiga olgan jamoa ijrochiligi turlari mavjud edi. Odatda, ochiq joylarda bir necha damli - karnay, surnay va urma zarbli cholg‘ular (nog‘ora, chindaul) chalinsa, dutor va tanbur ijrochiligi esa, faqat xonaki xususiyat kasb etgan bo‘lib, bu ijrochilik san’atini asosan ayollar egallagan edilar.

XV asr miniatyuralarida musiqiy cholg‘ulardan tashqari qarsak jo‘rligida ijro etilayotgan raqslar ham tasvirlangan. Bunga ayniqsa, Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa” asari qo‘lyozmasida ifoda etilgan rasmlar guvohlik beradi. Zahiriddin Muhammad Boburning (1483 – 1530) e’tirof etishicha, Alisher Navoiy o‘z davrida musiqa ijrochilarining o‘z iste’dodlarini keng namoyon etishiga yaqindan ko‘maklashgan. Navoiy davrida nay, ud, g‘ijjak, dutor, tanbur, qonun, surnay, karnay va doyra kabi sozlar ancha takomillashib, xalq orasida keng tarqalgan. “Boburnoma”da ta’kidlanishicha ularning barchasi yakka ijro yoki ansambl ko‘rinishida bir xil qo‘llanilgan.

Temuriylar hukumronligi paytida barcha hududlar singari Buxoroning ham mumtoz musiqasi ancha yuqori pog‘onalarga ko‘tarildi.

Shayboniylar davriga kelib ham musiqa san’ati ancha rivojlandi. Bunga sozanda, bastakor va musiqa nazariyotchilari Mavlono Najmiddin Kavkabi (XVI asr) va Darvishali Changiy (XVI – XVII asrlar) larning qo‘shgan hissalar katta bo‘ldi. Darvishali Changiyning “Cholg‘u haqida” nomli risolasida o‘zbek - tojik sozlari haqida ko‘pgina ma’lumotlar keltiriladi. Bundan tashqari yuqorida nomlari keltirilgan risolalarida O‘n ikki maqom (Rahoviy, Husayniy, Zango‘la, Rost, Ushshoq, Navo, Bo‘salik, Hijoz, Iroq, Isfahon, Zirafkand, Buzruk) ta’rifi va tasnifi berilib, ularning bastakorlari va ijrochilari nomi ham tilga olinadi, shu bilan birga maqomxonlikka jo‘r bo‘luvchi cholg‘ular haqida ham ancha qimmatli ma’lumotlar beriladi.

Shayboniyxon va Ashtarxoniylar sulolasi davrida shiddatli urushlardan so‘ng, Markaziy Osiyo hududida musiqa san’ati ancha rivojlanib, milliy sozlar takomillashuvi ham ancha taraqqiy etadi.

Milliy sozlarning takomillashuvi va xalq orasida keng ommalashuvi ayniqsa XIX sar oxiri va XX asrlarda jiddiy tus oldi. O‘tgan asrning 20 - 30 yillarida cholg‘u asboblari qayta ta’miralanib, Jahon xalqlari musiqasini nota bilan chalishga ancha moslashtirildi. Milliy sozlardan dutor, tanbur, g‘ijjak, rubob va changlarning oilaviy turlari yaratildi. Ularning ba’zilari dastalarida nimparda va chorakpardalar qo‘shildi, ovoz tembri oshirildi, shuningdek, ularning ovoz diapazoni kengaytirildi. Shu tartibda milliy sozlarning yangi turlari yaratildi. Bu ishlarni amalga oshirishda mashhur sozanda va sozshunoslar To‘xtasin Jalilov, Usta Usmon Zufarov, Faxriddin Sodiqov, Orif Qosimov, Muhammadjon Mirzaev, Ergash Shukrullaev, Ashot Petrosyais va boshqalar jonbozlik ko‘rsatdilar.

Sozlarning ta’miralanishi O‘zbekistonda yangi – yangi cholg‘u orkestrlari va boshqa akademik jamoalarning shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Ayni paytda milliy sozlarimiz vositasida ham an’anaviy ham akademik musiqiy asarlarni maromiga yetkazib chalishga imkoniyat tug‘ildi. Shu

munosabat bilan viloyatlar va Respublikamiz markazidagi musiqa bilim yurtlarida (hozirgi san'at kolleji) xalq cholg'u asboblari bo'limi bilan birgalikda an'anaviy sozandalik bo'limlari ham ta'sis etildiki, buning natijasi o'laroq, bugungi kunda milliy cholg'ularimiz vositasida iste'dodli o'zbek sozandalari turli xalqaro ko'rik – tanlovlarda ishtirok etib faxrli o'rinlarni egallamoqdalar. Bu esa xalq cholg'u asboblari kelajak istiqbolidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kholmurodovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.
2. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.
3. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501..
4. Ramazonova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram Desktop/Бехруз Болтаев (2).rtf2. – №. 1. – С. 336-339
5. Kholmurodovna U. R. Formation of publicistic performing skills in singing. – 2021.О
6. Hamidovich B. B. INTERPRETATION OF THE METHODS OF BUKHARA SHASHMAKOM AND THE FUNDAMENTALS OF MAKOM //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1063-1066.
7. Hamidovich B. B. AL-FARABI AND IBN SINA'S CLASSIFICATION OF THE FOUNDATIONS OF THE THEORY OF" IYKUT" METHODS IN ORIENTAL MUSIC EDUCATION //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 102-104.
8. Boltayev B. H. O 'ZBEK MILLIY QO 'SHIQCHILIGINING QADR TOPISH XUSUSIYATLARI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 312-318.
9. Mustafoyev B. TA'LIM ISLOHOTLARI MAZMUNIDA YOSH AVLOD MUSIQA MADANIYATI TARBIYASI //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 60-66.
10. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.
11. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
12. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
13. Ortiqov O. R. TALABALAR MA'NAVIY AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA "QOBUSNOMA" ASARIDAN FOYDALANISH //Conferencea. – 2023. – С. 1-5.
14. Ortiqov O. R. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPENTLIKNING ROLI VA AHAMIYATI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 42-47.

15. Жураев Б. Т., Абдурахмонова Д. У. Эстетическое развитие школьников средствами узбекского музыкального фольклора //Вестник Чувашского государственного института культуры и искусств. – 2019. – №. 14. – С. 77.
16. Жураев Б. Т. Социально-духовное развитие студентов //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 22-23.
17. Умурова М. Ё. The importance of using pedagogical technologies in special educational schools //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2. – С. 24-26.
18. Умурова М. Ё. РОЛЬ ТРУДОВЫХ ПЕСЕН В ФОЛЬКЛОРЕ //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 43. – С. 97-101.
19. Umurova M. Y. Practical Possibilities of Spiritual-Moral Formation through Folk Songs //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN. – Т. 2795. – №. 546X. – С. 55.